Tijorat banklari tomonidan eksportyor korxonalarning kreditlash amaliyotini takomillashtirish	1092
Bayjanova Gozsal Sarsengaliyevna	
Digital Transformation of Tax Systems.....	1096
Boburjon Turanboyev Qodirjon o'g'li, Musabekov Sherali Nazarali o'g'li	
Yangi O'zbekistonda xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirish yo'nalishlari.....	1101
Raxmonova Aziza Tolibovna	
Transitioning to a Green Economy and Implementing Sustainable Technological Changes in Uzbekistan	1106
Umarov Elshod G'ulom o'g'li	
Texnik yo'nalishdagi oliy ta'lim muassasalari daromadlari tarkibi va ularning o'ziga xos jihatlari.....	1112
Yuldashov Elmurod Abduljalil o'g'li	
Совершенствование системы профессионального управления жилищно-коммунальным хозяйством Узбекистана	1116
Икромовна Ханифа Одилевна	
Sanoat korxonalarini kreditlash amaliyotining zamonaviy holati.....	1121
Kamalova Jamila	
O'zbekistonda davlat ishtirokidagi korxonalarning huquqiy maqomi va ularni isloh qilishning istiqbollari	1125
Qahhorov Azizjon Ahror o'g'li	



Nodavlat notijorat tashkilotlari mablag'lari va ulardan foydalanish to'g'risidagi bajarilishlarga oid hisobotni tuzish va taqdim etish tartibi	1131
Ne'matov Oybek Ismatullayevich	
Предприятие автомобильной промышленности как объект реализации концепции устойчивого развития	1136
Туйчиев Комилжон Лазизович	
Tijorat banklari aktivlari diversifikatsiyasining nazariy ahamiyati	1143
O'ktamova Nozima Narzulla qizi	
Tijorat banklarida yangi masofaviy bank xizmat turlarini rivojlantirish	1146
Umarov Abdulquddus Abdilxatovich	
Некоторые вопросы эконометрической оценки CES – функций и их практическое применение в экономических задачах	1151
Шадиева Гулнора Мардиевна, Усманов Фарзод Шохрухович	
Использование искусственного интеллекта в спортивной индустрии.....	1158
Усманова Дилфузахон Иброхимовна	
The Role and Significance of Internal Audit as an Effective System of Internal Control in Business Entities	1163
Po'latov Sherzodbek Oybek o'g'li, Farmonov Ilhomjon Iqboljon o'g'li	
Qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishda investitsiyalardan foydalanishni takomillashtirish (Andijon viloyati misolida)	1168
Xolmatov Sanjarbek Xojimamatovich	
O'zbekiston temir yo'l transport tizimi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari.....	1174
Qilichev Umid Ibadullayevich	
Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi sharoitida raqamli banklar resurslarini oshirish choralari	1181
Xamraqulova Gulnozaxon Faxriddin qizi	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kredit foiz stavkasini muvofiqlashtirish masalalari	1185
Jumayev Muzaffar Mahmud o'g'li	
O'zbekistonda Islom banklari faoliyatini tashkil etishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati	1191
Vasiyev Alisher Samiyevich, Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li	
Islom iqtisodiyotining mohiyati.....	1197
Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li	
Budjet mablag'larini taqsimlanishi va maqsadli sarflanishida inson kapitalidan foydalanish va jamoatchilik nazoratining samaradorligi	1201
G'ofurov Bekzod Fayzulla o'g'li	
Maxsus iqtisodiy zonalar investitsiya muhiti jozibadorligini oshirishda tarif va notarif mexanizmlaridan foydalanish imkoniyatlari	1207
Ja'sur Umirzoqov Artiqboy o'g'li	
Перспективное развитие промышленной кооперации между странами	1212
Назарова Раъно Рустамовна, Жартай Жанибек Маратулы	
Soliqlar yig'iluvchanligini oshirishga ta'sir etuvchi omillar	1218
Berdiyeva Uguloy Abduraxmanovna	
Ta'lim sifatini ta'minlash oliy ta'lim xizmatlari bozorini rivojlantirishning asosiy omili.....	1222
Nematov Inatillo Ubaydullayevich	
Aholiga ko'rsatiladigan bank xizmatlarini takomillashtirish.....	1228
Umurzakova Adiba Ochilovna	
Tijorat banklari resurslari shakllanishining manbalari va yo'llari.....	1232
Raxmanov Ilhom Xurramovich	
Факторы развития культурного туризма в Узбекистане	1238
Пулатова Сурайё Юлдашевна	
Пути эффективного использования внутренних инвестиций в национальной экономике.....	1242
Рафиева Зарина Хусановна	
Development of the Country's Economy Through the Development of the Stock Market in Developing Countries	1246
Akhmedov Doniyorbek	
O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotini rivojlanishi va uning asosiy yo'nalishlari	1250
Azizova Manzura Ibragimovna	
The theoretical importance of product cost reduction in industrial production.....	1254
Dilfuza Baxramovna Safarova	
Fond bozorlarining tashkil etilishi va rivojlanish tendensiyalari.....	1261
Shamsiyev O'ktam Sayfitdinovich	
Mamlakatda davlat tibbiyot muassasalarining tutgan o'rni va ularni rivojlantirish yo'nalishlari.....	1266
Sultonova Mushtariy Abdulabbosovna	
Obligatsiyalar bozorida banklarning ishtiroki va ahamiyati.....	1272
Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li	
Milliy iqtisodiyotimizda investitsiya portfelini shakllantirishning nazariy asoslari	1277
Ibragimov Gafurjan Axmetovich	
Kompaniyalarning tashqi savdo faoliyatini moliyalashtirishning nazariy asoslari va xorij tajribasi.....	1282
Ibragimov Mansur Axmedovich	



Mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosining samaradorligini oshirish masalalari (Jizzax viloyati misolida).....	1286
Mamayusupov Omonulla Mamatqulovich	
Ключевые факторы успеха в мотивации и управлении проектными командами.....	1295
Мансурова Севара Мансуровна	
Mehmonxona biznesida CRM tizim xizmatlarini loyihalash	1298
Ishanxodjayeva Dilfuza Erkinovna	
Внедрение цифровой трансформации высших учебных заведений.....	1302
Кучаров Абдор Сабиржанович, Абдурахмонов Абдумалик Абдурашидович, Набиева Нилуфар Наби қизи	
Mamlakatimizda masofaviy bank xizmatlarini ko'rsatuvchi tizimning rivojlanish tendensiyasi	1310
Maxmudova Muxlisa Qodirjon qizi	
Tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashning nazariy asoslari.....	1319
Davronov Saxobiddin Faxriddinovich	
O'zbekistonda suv zaxiralaridan foydalanishning retrospektiv tahlili	1324
Axmedov Sayfullo Normatovich	
Raqamli iqtisodiyot rivojlanishida to'lov tizimlarining o'rni	1334
Ismailov Xusanboy Mahammadqosim o'g'li, Rizayev Anvar Baxtiyorovich	
Fostering Entrepreneurship and Enhancing Women's Employment: The Uzbekistan Perspective	1338
Kholiyorova Shokhista	
Zamonaviy soliq tizimlarining amal qilish xususiyatlari	1341
Taniyev Ahmadjon Bahromovich	
Mamlakatimizda tijorat banklarini tashkil etishning huquqiy asoslari.....	1347
Masharipov Maxmud Bekturdiyevich	
Mamlakat iqtisodiyotining samarali rivojlanishida hayot sug'urtasining o'rni	1352
O. Jono'zoqov	
Sanoatda resurs tejamkorligini ta'minlash orqali barqaror rivojlanishga erishish	1358
Ergashev Sanjarbek Sobirjon o'g'li	
Southeast Asia's Green Economy and Environmental Taxation	1364
Fayzieva Nargiza Rabimovna	
Tijorat banklari biznesini boshqarishning asosiy yo'nalishlari va tahlili.....	1371
Raxmatov Azizjon Jaloliddinovich	
O'zbekiston Respublikasida islom banklarini tashkil etishda xorij tajribasining o'rni.....	1375
Yo'ldosheva Iroda Ibodulla qizi	
Baliqchilik tarmog'ida samaradorlikni baholash masalalari.....	1380
Fayziyev Oybek Raximovich, Aitimbetov Amirbek Koishibekovich	
Qishloq xo'jaligida innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirishning huquqiy-iqtisodiy asoslari va davlat siyosati..	1389
Xalikov Suyun Ravshanovich	
O'zbekiston Respublikasi hududlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ilmiy yondashuvlar	1394
Mullabayev Baxtiyarjon Bulturbayevich	
O'zbekistonda davlat-xususiy sherikchilik loyihalarida islomiy moliyalashtirish konsepsiyasini asoslash va joriy etish.....	1401
Zayniddinov Ruhiddin Xusniddin o'g'li	
Korxonalar faoliyatini ifodalovchi umumiy ko'rsatkichlar asosida reytingni aniqlash	1411
Maxkamboyev Komil Abdulkakovich	
Dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlashda klaster-kooperatsiya tizimi samaradorligini oshirish masalalar	1416
Xo'jaqulova Nigora Rustamovna	
Kimyo tolalari asosida to'qimachilik sanoatini diversifikatsiyalash.....	1424
Raximov Furqat Jalolovich	
Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish orqali mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish istiqbollari.....	1431
Alimbayeva Sevara Alimbayevna	
O'zbekistonda islom banklarini tashkil etish zaruriyati va rivojlantirish imkoniyatlari	1437
Yo'ldosheva Iroda Ibodulla qizi	
Yalpi sug'urta mukofoti hajmiga ta'sir etuvchi omillar asosida sug'urta bozorini ekonometrik tahlili.....	1441
Mirzayev Bobur Soyibjonovich	
Biznesni tugatishning yakuniy bosqichi: tashkiliy-uslubiy ta'minotini takomillashtirish	1448
Davletov Ikram Raximberganovich	



BIZNESNI TUGATISHNING YAKUNIY BOSQICHI: TASHKILIY-USLUBIY TA'MINOTINI TAKOMILLASHTIRISH

Davletov Ikram Raximberganovich

I.f.f.d. (PhD), Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Buxgalteriya hisobi kafedrası dotsenti

Annotatsiya: Maqolada biznesni tugatishning yakuniy bosqichi tashkiliy-uslubiy ta'minotini takomillashtirish masalalari yoritilgan bo'lib, unda yakuniy tugatish balansini tuzishning maqsadi va uning asosiy vazifalari, tugatilayotgan biznes bo'yicha sof aktivlarni hisoblash hamda uni buxgalteriya hisobi schotlarida aks ettirish tartibi, taqsimlash dalolatnomasini tuzish masalalari o'rganilgan. Shuningdek, kreditorlarning talablarini qondarish ketma-ketligini hisobga olgan holda yakuniy tugatish balansini tuzish bo'yicha tavsiyalar shakllantirilgan hamda yakuniy tugatish balansini shakli ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: biznesni tugatish, tugatish massasi, kreditorlar, sof aktivlar, majburiyatlar, yakuniy tugatish balansini.

Abstract: The article highlights issues of improving organizational and methodological support for the final stage of liquidation of a business. Studied the purpose of drawing up the final liquidation balance sheet and its main tasks, the calculation of the net assets of a liquidated enterprise and the procedure for its reflection in the financial statements, and the preparation of a distribution act. Formed the recommendations for drawing up the final liquidation balance sheet, taking into account the order of satisfaction of creditors' claims, and developed a form for the final liquidation balance sheet.

Key words: business liquidation, liquidation estate, creditors, net assets, liabilities, final liquidation balance.

Аннотация: В статье освещены вопросы совершенствования организационно-методического обеспечения заключительного этапа ликвидации предприятия. Изучены цель составления окончательного ликвидационного баланса и его основные задачи, расчет чистых активов ликвидируемого предприятия и порядок его отражения в бухгалтерской отчетности, составление распределительного акта. Также были сформированы рекомендации по составлению окончательного ликвидационного баланса с учетом очередности удовлетворения требований кредиторов, а также разработана форма окончательного ликвидационного баланса.

Ключевые слова: ликвидация бизнеса, ликвидационная масса, кредиторы, чистые активы, обязательства, конечный ликвидационный баланс.

KIRISH (INTRODUCTION)

Erkin raqobatga asoslangan iqtisodiy makonda faoliyat yuritayotgan biznes o'zining iqtisodiy rivojlanish siklining turli bosqichlarida tashkiliy, moliyaviy va boshqa qiyinchiliklarga duch kelishi hamda buning natijasida o'z faoliyatini tugatishi mumkin. Bu holatda qarzdor-korxona va kreditorlar harakatlarini muvofiqlashtirish davlat tomonidan bu jarayonlarni nazorat qilish bo'yicha iqtisodiy-huquqiy mexanizmlarni yaratishga ehtiyoj tug'iladi. Shu sababli mamlakatimizda biznesni tugatish jarayonlarini tartibga soluvchi bir qator qonun va qonun osti normativ-huquqiy hujjatlari ishlab chiqilgan. Lekin shularga qaramasdan, yuridik shaxslarni tugatish jarayonlari ko'plab mol-mulk, egalik huquqi, debitorlik va kreditorlik qarzlari, xususan kreditorlar talablarini qondirish va nihoyat, yakuniy tugatish balansini tuzish bilan bog'liq muammolar uchramoqda. Mazkur maqolada ushbu masalalarning tashkiliy-uslubiy yechimlariga yondashuvlarimizni taqdim etamiz.

S. S. Azimovning ilmiy ishlarida O'zbekiston Respublikasida korxonalar bankrotligi jarayonida uchraydigan muammolar tahlil qilinib, ushbu kamchiliklarni bartaraf qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga o'zgartirishlar kiritish bo'yicha takliflar qilingan ^[4, 5].

K. S. Islamovning ishlarida to'lovga qobiliyatsizlik, uning kelib chiqishi, to'lovga qobiliyatsizlikni amalga oshirish elementlari, soliq qarzini undirishda da'vo qilish muddatini o'zgartirish zarurligi, sun'iy qarz va undirilishi umidsiz bo'lgan soliq qarzini hisobdan chiqarish masalalari tadqiq qilingan ^[6].



METODLAR (METHODS)

Tadqiqot jarayonida umumiy metodologik asos sifati dialektika, umumilmiy metodlardan: ilmiy tafakkur, analiz va sintez, induksiya va deduksiya, abstrakt-mantiqiy fikrlash, analogiya, qiyoslash kabi nazariy metodlar; kuzatish, taqqoslash, matematik va iqtisodiy-statistik, shaklan ifodalash kabi empirik metodlar, shuningdek, bevosita tadqiqot mavzusining xususiy metodlari sifatida balanslashtirish, hujjatlashtirish, schetlar tizimi va ikkiyoqlama yozuv, inventarizatsiya, baholash, moliyaviy hisobot tizimi metodlari qo'llanildi.

NATIJALAR (RESULTS)

O'zR FKning 55-moddasiga muvofiq: "Kreditorlar bilan hisob-kitob qilish tugaganidan keyin tugatuvchi tugatish balansini (yakuniy tugatish balansini – D.I.) tuzadi, uni yuridik shaxsni tugatish to'g'risida qaror qabul qilgan yuridik shaxs muassislari (ishtirokchilari) yoki organ tasdiqlaydi. Yuridik shaxsni tugatish to'g'risidagi qaror sud tomonidan qabul qilingan taqdirda, tugatish balansini yuridik shaxslarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ bilan kelishilgan holda tasdiqlanadi" [1].

Tugatish massasini sotishdan olingan mablag'lar hisobidan kreditorlar bilan hisob-kitoblar yoki korxona mol-mulkini kreditorlarga topshirish jarayoni tugallanganidan so'ng, yakuniy tugatish balansini tuziladi. Yakuniy tugatish balansining asosiy vazifalaridan biri aktiv(mol-mulk)lar sotilib va kreditorlik qarzlari so'ndirilib bo'linganidan so'ng tugatish saldosi aniqlashdan iborat. Uning asosiy maqsadi korxona mulkdorlari va kreditorlari tomonidan ko'rilgan zararlarni ko'rsatishdir. Yakuniy tugatish balansining boshlang'ich qoldiqlari oraliq balansining ma'lumotlariga mos kelishi lozim. Bu o'z navbatida, tugatish ishlarining natijadorligi ta'minlanganini bildiradi.

Yakuniy tugatish balansini ham, oraliq tugatish balansini kabi, yuridik shaxsning ta'sischi(lari) (ishtirokchilari) tomonidan tasdiqlanadi va ro'yxatga oluvchi organ (davlat soliq inspeksiyasi) bilan muvofiqlashtiriladi.

Yakuniy tugatish balansini davlat soliq inspeksiyasiga topshirilganidan so'ng korxona soliq to'lovchi sifatida hisobdan chiqariladi.

Yakuniy tugatish balansini ta'sischi(lar) uchun foyda bilan chiqishi ham, zarar ko'rilishi ham mumkin. Birinchi holatda ta'sischi(lar) tugatishdan qo'shimcha daromad olib, foyda ular o'tasida taqsimlanadi, ikkinchi holatda esa, zararlari ustav kapitali (ta'sischi(lar) ulushi) hisobidan (ularning ulushlariga mutanosib ravishda) qoplanadi.

Yakuniy tugatish balansini tugatilayotgan yuridik shaxsning barcha hisob-kitoblarni yakunlaganidan so'ng, tugatish komissiyasi ta'sischi(lar)ga, ularning korxona ustav kapitalidagi ulushiga mutanosib taqsimlanadigan aktivlar summasini aks ettiradi.

Yakuniy tugatish balansini tuzilib, kreditorlar bilan barcha hisob-kitoblar yakunlanganidan so'ng, korxonada qoladigan mol-mulk daloilatnomaga asosan ta'sischi(lar) o'rtasida taqsimlanishi lozim. Daloilatnoma barcha ta'sischi(lar) tomonidan imzolandi. Lekin, avval taqsimlanadigan mol-mulk summasini aniqlash zarur. Buning uchun tugatilayotgan korxonaning sof aktivlarini aniqlash (hisob-kitob qilish) va ularni ustav kapitali bilan solishtirish zarur.

Sof aktivlarni hisoblash tartibi O'zbekiston Respublikasi davlat aktivlarini boshqarish agentligi direktorining 2020-yil 1-maydagi "O'zbekiston Respublikasining yagona milliy baholash standartini tasdiqlash haqida"gi 01/11-15/62-son buyrug'i bilan tasdiqlangan, [O'zbekiston Respublikasi adliya vazirligi tomonidan 2020-yil 4-iyunda ro'yxatdan o'tkazilgan, ro'yxat raqami 3239] "O'zbekiston Respublikasining yagona milliy baholash standartini" [3] bilan belgilangan.

Eslatma: Sof aktivlar deganda xo'jalik yurituvchi subyektning o'z mablag'lari bilan ta'minlangan uzoq muddatli va joriy aktivlarning qiymati, ya'ni xo'jalik yurituvchi subyektning qarz majburiyatlaridan ozod bo'lgan mol-mulk qiymati tushuniladi. Ularning miqdori buxgalteriya balansini ma'lumotlari asosida belgilanadi - korxonaning aktivlari summasidan uning majburiyatlari summasi chegiriladi (balansning 400-satri ayiruv 770-satri).

Agar ustav kapitali sof aktivlardan kam bo'lsa, u holda "shartli ustav kapitali" qolgan mol-mulk qiymati hisobidan sof aktivlar darajasiga yetkaziladi.

1. Agar tugatish balansining ma'lumotlariga ko'ra korxona tasarrufida qoladigan foyda aniqlansa, u holda bunday sof foydani buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettirish tavsiya etiladi:

- *Debet* 9910 "Yakuniy moliyaviy natija" scheti;
- *Kredit* 8710 "Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi (qoplanmagan zarari)" scheti.

Ushbu sof foyda ta'sischi(lar) qaroriga ko'ra tugatilayotgan korxonaning ustav kapitaliga qo'shilganida:

- *Debet* 8710 "Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi (qoplanmagan zarari)" scheti;
- *Kredit* 8330 "Pay va ulushlar" scheti.

2. Agar tugatish balansining ma'lumotlariga ko'ra korxonada zarar hosil bo'lsa, u holda bunday zarar ustav kapitali hisobidan qoplanishi, o'tgan yillarning qoplanmagan zararlari esa hisobot yilining qoplanmagan zarari tarkibiga o'tkazilishi tavsiya etiladi:



- *Debet* 8710 “Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi (qoplanmagan zarari)” scheti;
- *Kredit* 8720 “Jamg’arilgan foyda (qoplanmagan zarar)” scheti.

Hisobot yilining qoplanmagan zarari summasining ustav kapitali hisobidan qoplanishini buxgalteriya hisobi schetlarida quyidagicha aks ettirishni tavsiya etamiz:

- *Debet* 8330 “Pay va ulushlar” scheti;
- *Kredit* 8710 “Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi (qoplanmagan zarari)” scheti.

Shunday qilib, tugatilayotgan korxonaning ta’sischilari o’rtasida taqsimlanishi lozim bo’lgan ustav kapitalining haqiqiy summasi aniqlanadi.

3. Tugatilayotgan korxonaning ta’sischilariga to’lanadigan summaning hisoblanishini buxgalteriya hisobi schetlarida quyidagicha aks ettirishni tavsiya etamiz:

- *Debet* 8330 “Pay va ulushlar” scheti;
- *Kredit* 4610 “Ustav kapitaliga ta’sischilarning ulushlari bo’yicha qarzi”.

Tugatilayotgan korxonaning mol-mulkini ta’sischilar o’rtasida taqsimlash uchun dalolatnoma tuzilib, kimga nima, qancha summada va qachon berilganligi ko’rsatiladi.

Dalolatnoma korxonaning barcha ta’sischilari tomonidan imzolanib, ularga berilgan ulushlari (turlariga qarab) quyidagicha aks ettiriladi:

- *Debet* 4610 “Ustav kapitaliga ta’sischilarning ulushlari bo’yicha qarzi”;
- *Kredit* 5010 “Milliy valyutadagi pul mablag’lari”, 5110 “Hisob-kitob scheti” va boshqa schetlar.

Agar kreditorlar bilan to’liq hisob-kitob qilish uchun korxonaning mol-mulkari yetmasa, u holda kreditorlarning qondirilmagan talablari summasi tugatish balansida ko’rsatiladi.

Agar bankrot-korxonaning oraliq tugatish balansidagi mol-mulkar (tugatish massasi) kreditorlar to’liq hisob-kitob qilishga yetarli bo’lmasa, oraliq tugatish balansida kreditorlarning qondirilmagan talablari ko’lami to’g’risidagi axborotlar keltiriladi.

Yakuniy tugatish balansining aktivida hech qanday ko’rsatkichlar bo’lmaydi, chunki barcha mol-mulkar (tugatish massasi) sotilgan yoxud hisobdan chiqarilgan va debitorlik qarzarlar undirilgan bo’lishi lozim. Yakuniy tugatish balansining passiv moddolari bo’yicha faqat kreditorlarning qondirilmagan talablari va korxona mulkdorlarining ko’rgan zararlari aks ettiriladi (1-jadval).

1-jadval: Yakuniy tugatish balansini [“Invest-plyus” AJ 25-aprel 2023-y. (ming, so’m)]

Aktiv	satr kodi	ming so’m	Passiv	satr kodi	ming so’m
I. Uzoq muddatli aktivlar			I. O’z mablag’lari manbalari		
Asosiy vositalar		-	Ustav kapitali		-
Nomoddiy aktivlar		-	Qo’shilgan kapital		-
Tugallanmagan qurilish		-	Rezerv kapitali		-
			Taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar)		?
			Tugatish davri uchun taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar)		?
1-bo’lim jami		-	1-bo’lim jami		?
II. Joriy aktivlar			II. Majburiyatlar		
Tovar-moddiy xazinalar, jami		-	Uzoq muddatli majburiyatlar		-
sh. j.: xom ashyo va materiallar		-	Qarzarlar va kreditlar		-
tayyor mahsulot		-	Qisqa muddatli majburiyatlar		-
tugallanmagan ishlab chiqarish		-	Birinchi navbatda		-
Debitorlik qarzlari		-	Ikkinchi navbatda		-
sh. j.: moliyaviy ahvoli yomon korxonalarning debitorlik qarzlari		-	Uchinchi navbatda		?
moliyaviy qo’yilmalar		-	To’rtinchi navbatda		?
pul mablag’lari		-	Beshinchi navbatda		?
		-	Boshqa kreditorlar		
2-bo’lim jami		-	2-bo’lim jami		?
Balans		0	Balans		0



Barcha o'zaro hisob-kitoblar amalga oshirilganidan so'ng tugatish komissiyasi korxonaning bankdagi hisob-kitob schetini yopadi. Buning uchun bankka korxonani tugatish to'g'risidagi qarorning nusxasi ilova qilingan holda, uning hisob-kitob schetini yopish to'g'risidagi iltimosnoma-xat taqdim etiladi. Schetni yopish chog'ida vakolatli bank bu haqda ma'lumotnoma beradi va bankrot-korxonani tugatish kartochkasiga belgi qo'yadi.

Shundan so'ng davlat soliq inspeksiyasi (DSI)ga, yakuniy tugatish balansi va davlat boji to'langanligi to'g'risidagi kvitansiya ilova qilingan holda, tugatish uchun ariza beriladi (bankdagi hisob-kitob scheti yopilganidan so'ng 10 kundan kechikmasdan).

"Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibi to'g'risidani Nizom"ga muvofiq, hujjatlar topshirilgan kundan boshlab besh kun ichida yuridik shaxsni tugatish ishlari yakunlangan hisoblanadi. Yuridik shaxsning tugatilganligi, uning o'z moliya-xo'jalik faoliyatini to'xtatganligi va bu haqda Yuridik shaxslarning yagona davlat reyestri(YUSHYADR)ga yozilganidan keyin tan olinadi.

O'zR SKning 79-moddasiga muvofiq: "Yuridik shaxs tugatilganda hisob hujjatlari tegishli davlat arxiviga qonunchilikda belgilangan tartibda topshiriladi" [2].

XULOSALAR (CONCLUSIONS)

Shunday qilib, yuridik shaxslarni tugatishning normativ-huquqiy ta'minotini, xususan O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, "To'lovga layoqatsizlik"gi qonunining tegishli qoidalari, shuningdek qonunosti normativ hujjatlar va boshqa tashkiliy-farmoyish hujjatlarni tadqiq qilish natijalari shuni ko'rsatdiki:

- ularda dastlabki, oraliq va yakuniy tugatish balanslarining aniq ta'riflari hamda ularni tuzish uslublari (tartibi) keltirilmagan. Shuningdek, oraliq tugatish balansini tuzishda uning aktivi (tugatish massasi)ni va passivini shakllantirish algoritmi uslubiy jihatdan ta'minlanmagan;
- tugatish balanslarini (dastlabki, oraliq, yakuniy) tuzishning normativ-huquqiy va ilmiy-uslubiy ta'minotini hamda amaliyotini tadqiq qilish natijasida uni takomillashtirish zarurligi to'g'risidagi xulosaga keldik. Oraliq tugatish balansining maxsus shakli odatdagi davriy balanslardan ham shaklan, ham mazmunan farq qiladi. Oraliq tugatish balansini tuzishning umumiy qoidalari shakllantirildi, shuningdek u dastlabki va yakuniy tugatish balanslari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ifodalaydi. Oraliq tugatish balansining aktivi va passivi bo'yicha ko'rsatkichlarni guruhlash, davriy balans ko'rsatkichlarining guruhlanishidan farq qiladi. Bu esa korxonaning tugatilish chog'idagi moliyaviy ahvoli to'g'risida ma'lumotlar shakllantirilishini ta'minlaydi.
- va nihoyat, yakuniy tugatish balansining shakli ham taklif qilinib, u tugatish ishining yakunlari, jumladan, kreditorlarning qondirilmagan talablari to'g'risidagi axborotlarni ham aks ettiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi, <https://lex.uz/docs/111189>
2. O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi. <https://lex.uz/docs/4674902>
3. O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi direktorining 2020-yil 1-maydagi 01/11-15/63-son "O'zbekiston Respublikasining yagona milliy baholash standartini tasdiqlash haqida"gi buyrug'i. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2020 yil 4 iyunda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 3239. <https://lex.uz/docs/4842496>
4. Azimov S.S. O'zbekiston Respublikasida bankrotlik amaliyotini tadqiq etish orqali amaldagi mavjud muammolarni yechimi bo'yicha takliflar. Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies, France. 19th February, 2023. econferenceseries.com, 9-15 pages.
5. Azimov S.S. Bankrotlik amaliyoti va uning amaldagi holati bo'yicha mavjud muammolar va ularning yechimlari. O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va tadqiqotlar ilmiy jurnali. 12-son.
6. Islamov K.S. To'lovga qobiliyatsiz (bankrot) korxonalarni tugatish va umidsiz soliq qarzini hisobdan chiqarish mexanizmini takomillashtirish tartibi. Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil ilmiy elektron jurnali, 5-son. 2023-yil, sentabr.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 11-12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining

2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.